

INGLIZ-O'ZBEK TILLARIDA KONVERSIYA VA UNING LINGVISTIK USUL
SIFATIDAGI KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Muratxodjaeva Feruza Xotamovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Oriental universiteti, G'arb tillari kafedrasida dosenti

Konversiya lotincha so'z bo'lib, *sopuersio* "aylanish", "o'zgarish" ma'nolarini ifoda etadi. So'zning fonetik va morfologik jihatdan o'zgarmay, bir so'z turkumidan boshqa bir so'z turkumiga o'tishi, shu yo'l bilan yangi so'z hosil bo'lishidir.

Hozirgi o'zbek tili nazariyasiga doir manbalarda konversiya leksikalizasiya jarayoni sifatida izohlangan. Leksikalizasiya yoki leksemalashuvning, jumladan, fonetik variantlar ma'noviy ixtisoslashishining umumlisoniy qonuniyatlar asosida yuzaga keladigan jarayon sifatida izohlangan.

Konversiya nomi bilan ataluvchi transformasiyada berilgan gap sathida ichki o'zgarishlar vujudga kelishi kuzatiladi. Biroq mazkur o'zgarishlar gapning leksik komponentlari tarkibida emas, balki grammatik qurilishi doirasida ro'y beradi: *Istiqlol bilan birga o'zlikni tiklash zamoni keldi. → O'zlikni tiklash zamoni istiqolol bilan birga keldi.*

Transformasiya jarayonida keltirilgan gaplarning leksik komponentlari tarkibida qariyb o'zgarish kuzatilmaydi. Lekin mazkur gaplarning grammatik strukturada konversiya hodisasi ro'y berayotganini ko'ramiz. Boshqacha aytganda, birinchi gapda grammatik sub'ekt vazifasini bajarayotgan *xabar* so'zi ikkinchi gapda to'ldiruvchi maqomida, birinchi gapda vositasiz to'ldiruvchi funksiyasida kelayotgan *qonini* so'zi ikkinchi gapda sub'ekt vazifasida kelmoqda. Grammatik predikat vazifasidagi so'zlar esa leksik jihatdan mushtarak bo'lmasa ham, semantik salmoqlariga ko'ra bir-biriga yaqindir. Mazkur gaplarning ishtirokchi unsurlarini simvollar vositasida quyidagicha berish mumkin: $P=d_1+N_1+d_2+N_2+N_3+V \rightarrow P=d_1+N_1+d_2+N_2+N_3+V$.

Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan aksariyat tadqiqotlarda XX asr oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslikda til va nutq jarayonlarini antroposentrik nuqtai nazaridan o'rganish xosligi ta'kidlanadi. Globallashuv va innovasion texnologiyalar ingliz tilining metatil sifatida qo'llanish doirasini yanada kengaytirdi. Lekin sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ingliz tili ichki strukturasi deyarli ta'sir ko'rsatmaydi. Tadqiqotlarda konvertasiyaning turli ko'rinishlari o'rganilgani, ammo konversiya so'z tejash mexanizmi sifatida baholangan izlanishlar, uchramasligi qayd etilgan. L.Gadimova tadqiqotida konversiya so'z yasash vositasi yoki transpozisiya turlaridan biri sifatida emas, tilning universal tasviriy vositasi sifatida tahlil etilgan. Mazkur yondashuv tilning o'ziga xos ehtiyojlarini aks ettiruvchi va konversiyani so'zlovchining kommunikativ vazifalari sifatida belgilaydigan kognitiv tabiati omillari bilan bog'liq.

Konversiyaga turli grammatik birliklar uchun bir xil asosdan foydalanish sifatida qaraladi. Ayrim tadqiqotlarda konversiyaning faqat morfologiyaga, faqat sintaksisga yoki ham morfologiyaga, ham sintaksisga aloqador hodisa ekanligi asoslangan.



Date: 13th March-2025



Konversiya ingliz tili morfologiyasida yangi soʻzlarni shakllantirishning samarali usuli sifatida tavsiflangan. Bu jarayon derivasion xarakterga ega boʻlib, soʻzning leksik kategoriyasi bir sinfdan ikkinchi sinfga oʻtgan boʻlsa ham, shaklda oʻzgarish boʻlmaydi. Tadqiqotlarda konversiya sinxron va diaxron aspektida koʻrib chiqilgan. Sinxron tahlilda hozirgi ingliz tilidagi konversiya turlari atroflicha oʻrganilgan, ingliz tilidagi konversiya jarayoniga oid munozarali savollarga eʼtibor qaratilgan. Konversiyaga oid tilshunoslikdagi toʻrt asosiy muammo: yoʻnalish muammosi, konversiyani aniqlash muammosi, konversiyaning sintaktik yondashuvi va mahsuldorlik masalasi qayd etilgan. Konversiya boʻyicha taklif qilingan bir qator nazariyalar tavsiflangan. Shu bilan bir qatorda diaxron yondashuv asosida ingliz tilidagi konversiyaning tarixiy taraqqiyoti koʻrib chiqiladi. Konversiya usulida soʻz hosil qilish jarayoni tilda asrlar davomida mavjud boʻlgan. Konversiyaga diaxron yondashuv kam kuzatiladi. Ingliz tilidagi konversiya diaxron aspektida uchga ajratilgan: eski ingliz tilidagi konversiya, oʻrta ingliz tilidagi konversiya va zamonaviy ingliz tilidagi konversiya. Har bir davrdagi konversiya holatlari manipulyasiya qilingan.

Bir qator tadqiqotlarda ingliz tilidagi asosiy total konversiya yoʻnalishi oʻrganilgan. Asosiy total konversiya jarayon sifatida asosning grammatik belgilarini oʻzgartirish yoʻli bilan yangi leksik elementni hosil qilish natijasi sifatida belgilanadi: *dry (quruq- sifat) – to dry (qurimoq- feʼl)*. Shunisi ham borki, bunday hollarda juflikning qaysi aʼzosi asos, qaysi biri konversiyaga uchragan jufti ekanligini aniqlash qiyin. Bu borada konversiyaga uchragan matnlarning katta hajmli korpusi toʻplangan.

Konversiya soʻz yasash usuli sifatida tadqiq qilingan izlanishlar koʻp kuzatildi. M.Asanova tadqiqotida konversiya funksional hodisa, sinkretizm emas, soʻz yasashining semantik-morfologo-sintaktik usuli sifatida tahlil etilgan. Bunda bir soʻz turkumiga mansub soʻzning shakl oʻzgarishlarisiz boshqa turkumdagi soʻzning hosil boʻlishi tushuniladi. Bunda sifatida semantik siljish, morfologik paradigma va soʻzning grammatik shakllanishi soʻz yasash vositasi olingan. Konversiyaning hozirgi ingliz va qarachoy – balqar tillarida soʻz yasashining faol usuli sifatida keltirilgan. Adj-N konversion modelining ingliz va qarachay balqar tillari uchun umumiyliigi, Adj- Adv modelining ingliz tilida kam kuzatilishi taʼkidlangan. Kommunikasiya talabi bilan ingliz tilida istalgan soʻz turkumidan yangi soʻz hosil qilish mumkinligi aytilgan. Aksariyat sodda feʼllarning konversiya usuli orqali otdan shakllangani, sifatlardan konversiya usulida hosil boʻlgan feʼllar koʻp emasligi keltirib oʻtilgan.

“Konversiya” termini ingliz tilida birinchi marta 1892 yilda G. Svit tomonidan qoʻllangan. Bu hodisa undan oldinroq Metzner tomonidan eʼtibor qilingan edi. Turkiy tillarda German Vamberi feʼl-ot omonimligini aniqlagan. Germann tillariga oid tadqiqotlarda konversiya haqida uch xil qarash mavjud:

1. Konversiya bir turkumdagi soʻzning boshqa turkum oʻrnida kelishini ifoda etgan. Bu qarash tarafdorlari konversiyani bir soʻzning turli turkum vazifalarida kelishi sifatida baholab, konversiya usulida yangi soʻz yasashini inkor etadi. Polifunksionallik konsepsiyasi tarafdorlari soʻz maʼnosini “odatdagi”, “asosiy”ga va faktik yoki funksional maʼnoga ajratadilar. Konversiyani sintaktik hodisa sifatida baholaydilar.

Date: 13th March-2025

2. Konversiya bir jihatdan ma'lum bir so'zning boshqa turkumda qo'llanishini ifoda etgan bo'lsa, boshqa jihatdan u so'z yasashiga qiyoslangan. Bu qarash tarafdorlari konversiyani bir so'zning boshqa so'z turkumi o'rnida ko'p qo'llanishi natijasida sodir bo'ladigan hodisa sifatida talqin qiladilar.

3. Konversiya so'z yasalishi usuli sifatida qaralgan. Masalan, Vt-N:rescue (spasat) – N (spasenie), Adj-N-Adv-Prep.-Vt-V1 round Adj (aylana) - N (aylana) –Adv (aylana)-Prep (atrofida)-Vt (aylantirmoq)- V1 (aylanmoq).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muratkhodjayeva, F. (2024). Cognitive Linguistics Theory in Anthropocentric Paradigm. *International Journal of Industrial Engineering, Technology & Operations Management*, 2(2), 63-70.
2. Xotamovna, M. F. (2025). COGNITIVE PSYCHOLOGY AND COGNITIVE LINGUISTICS INTERACTION WITH OTHER DISCIPLINES. *PEDAGOG*, 8(1), 105-108.
3. Xotamovna, M. F. (2025). KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILNING NAZARIY ASOSLARI. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 8(1), 188-190.
4. Xotamovna, F. (2024). Cognitive-semantic analysis of technical terms combinations and their expression for training engineers. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 84, p. 04027). EDP Sciences.
5. Xotamovna, M. F. (2024). MILLIY-MADANIY BIRLIKLAR TARJIMALARINING BADIY MATNLARDA BERILISHI. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 3(34), 179-181.
6. Muratkhodjaeva, F. X. (2022). Linguistic definition of conversion as a method of formation of words and phrases in English linguistics. *Confrencea*, 2(2), 61-64.

